

YOSHLARNING ADABIYOTGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISHDA BERDAQ SHE‘RIYATINING O‘RNI

Nomozova Gulnoza Rahim qizi

ToshPTI Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti
2-kurs 208-guruh talabasi

Abdullayev Sunnatillo Tojiboy o‘g‘li

ToshPTI 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti
2-kurs 214-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Sulaymonova Maxfura Maxamadjon qizi**

Annotatsiya: *ushbu maqolamizda adabiyotimizda o‘zining xalqona ijodi bilan xalqning qalbidan joy olgan adib Berdaq she‘riyati orqali yoshlarni adabiyotning mazmuni bo‘lgan she‘riyatga oshnoligini oshirish hamda shoir dostonlarini o‘rganishning ilmiy va ma‘naviy, tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *xalqparvarlik, adolat, razolat, jaholat, marifat, odillik, halolik, yolg‘onchilik, haqiqat.*

Ayni paytda, o‘zbek she‘riyatida an‘anaviy yo‘nalish hali-hamon tashabbusni o‘z qo‘lida tutib kelayotganini ta‘kidlash joiz. Chunki bu yo‘nalish xalq ruhi bilan, uning qiziqish, o‘y va dardlari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Shunga ko‘ra, bu yo‘nalish vakillarining ijod namunalari bir necha ming nusxada chop etilib, tez tarqalib ketadi¹. Dastlab she‘riyat deyilganda, umuman, badiiy adabiyot tushunilgan bo‘lsa bugungi kunga kelib she‘riyat alohida bir ko‘rinishga kelgan. Shu o‘rinda Berdaq she‘riyati she‘riy asarlar majmui deganda ko‘z o‘ngimikgda xalq dardini kuylagan shoir gavdalanadi. She‘riyat badiiyatga daxldor sanalgan muammolarni qofiyaga solingan so‘zlar. Insoniyatning adabiyoti tarixida faqat she‘r shaklida yozilgan bitiklarga so‘z san‘atiga tegishli deb hisoblab kelingan. Qadim zamonlarda ham nasrga oid asarlar yaratilgan bo‘lsada, ular nafis san‘atga, badiiy adabiyotga tegishli emas, deb qaralgan. She‘rning muayyan ichki tartib asosiga qurilganligi, oddiy so‘zlashuvga o‘xshamasligi, hamma ham fikru tuyg‘ularini bu shakdda ifodalay

¹ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/ulug-bek-hamd-erkin-badiiy-tafakkur-va-bugungi-o-zbek-sheriyati>.

olmasligi unga qandaydir sirlilik, mumtozlik maqomini beradi. Adabiyotimiz tarixi asosan xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan bo‘lgan ertak, qo‘shiq va dostonlardan iboratdir.

Xalq og‘zaki ijodida turli mavzudagi qo‘shiqlar ko‘p uchraydi. Shulardan eng ko‘p tarqalgani “jaydari qo‘shiq”lar deb ataladigan turidir. Bu qo‘shiqlar xalq hayotining turli tomonlarini qamrab olgan bo‘lib, sodda, tushunarli qilib aytilgan. Yuqoridagi kabi yuksak shakldagi vatanparvarlik va xalqqa xizmat qilish kabi yuksak mavzudagi ijodni adabiyotimizning va qoraqalpoqning buyuk yozuvchisi bo‘lgan Berdaq ijodida ham kuzatish mumkin.

Berdaqning “Ko‘rindi” she‘ri:

*Dunyosi qursin, yo‘q unga poyon,
Tilim tutiladi, azob chekar jon,
Elim och, yalang‘och, g‘arib, notavon,
Keng yer yuzi ko‘zimga tor ko‘rindi.*

*Yorqanot uchadi, qizil, pari yo‘q,
Pari yo‘q, kori yo‘q yo‘ hunari yo‘q,
Sovuqda ucholmas, holu sabri yo‘q,
Yoz qish kabi ko‘p dilozor ko‘rindi.*

*Yo‘rg‘ayu, tulporu ne-ne yugruk bor,
Odamizod shod chog‘ida u darkor,
Bog‘i eram, yo xiyobon, terakzor
Ko‘zlarimga bir changalzor ko‘rindi.*

*Keng dunyo menga tor, alomat bo‘ldi,
Yo‘llar tuman, quyun, chang bilan to‘ldi,
Qizil gulday yuzlar somonday so‘ldi,
O‘tgan dunyo menga mozor ko‘rindi.*

*Odamga bemehr jallod beomon,
Elni ko‘p yig‘latar otalik va xon,
Boshga og‘ir kulfat bo‘ldi bu zamon,
Menga bari ilon, chiyon ko‘rindi¹.*

¹ Berdaq saylanma she‘rlar va dostonlar. Qoraqalpoq tilidan Mirtemir tarjimai G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti Toshkent — 1978

Bu misralar nasriy matnga aylantirilsa, undagi sirlilik, ta'sirchanlik, mukammallik butunlay yo'qoladi, oddiy so'zlarning unchalik ham mantiqli bo'lmagan yig'indisiga aylanib qolishi mumkin. She'ning sehri uning mohiyatini anglash mushkulligida, mazmunning tutqich bermasligidadir. Shoirning o'zigagina xos jonli ohanglardan foydalanganligi faqat o'zigagina tegishli betakror ruhiy holatning ifodalanishi she'rni yuksak darajaga ko'taruvchi omildir. Berdaq ijodida so'z san'atining alohida shakli sifatida nasrning paydo bo'lishi she'r mohiyatini o'zgartirib, tasirchanlikni susaytirib qo'ymagan bo'lsada, inson ichki ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Berdaqning yuqoridagi she'rida jamiyat va tabiatda ro'y bergan hayotiy hodisani badiiy hodisaga aylantirish vositasi hamda shaxsiy kechinmalarni mohirona tarzda izchillik shoirning betakror va haqiqiy hislarini ifoda qilishning yo'li sifatida shiddat bilan ochib beradi. Shubhasiz, Berdaq she'riyati ko'proq lirik mohiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

She'ning mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarga Qoraqalpoq xalqi mumtoz adabiyoti kechroq yozma adabiyotga ega bo'lgan bo'lsada, Berdaq she'rida xalq hayotini haqqoniy aks ettiruvchi bir qancha asarlar she'riy tarzda yaratilgan. Qoraqalpoq adabiyotining paydo bo'lishi va shakllanishiga nazar soladigan bo'lsak Berdaq munosib hissa qo'shgan adib hisoblanadi. Xalq shoiri ham san'atkor, ham yozuvchi sifatida mashhur bo'lgan Berdaq doimo xalq hurmatida bo'lgan. O'zbek xalqi bilan yonma-yon yashagan qoraqalpoq xalqi madaniyatining vakillaridan bo'lgan Berdaq ham Buxoro va Xiva madrasalarida qisqa muddat mobaynida o'qigaligi, ammo iqtisodiy va siyosiy jarayonlar uning madrasada tahsil olishiga to'sqinlik qilganligini Berdaq ijodiga oyid tarixiy qo'lyozmalardan bilib olishimiz mumkin.

Qoraqalpoq shoirlaridan birinchilar qatorida bo'lib baxshichilik jarayonlarini kuyga solib ijod qilgan shoir Berdaq ko'plab ijod jarayonlarini xalqning ichida bo'lib xalqning turmush jarayonlaridan olib yozganligi bizga shoir she'rlaridan malumdur. Berdaqning asarlari ham og'zaki, ham yozma shaklda xalq orasida ommalashib tarqalgan. Berdaq ijodidagi she'riyati asosan kambag'al xalqning og'ir turmushi haqida yaniy quydagi she'rlari ma'lum va mashxurdir: Xalq uchun, Soliq, Yaxshiroq, Bolam singari she'rlar o'zining zamonasidagi ochko'z xonlarni, beklarni tanqidiy shaklda qo'rqmasdan yoza olgan shoir sifatida xalq orasida ma'lum va mashxurdir. Berdaq yozgan illatlar zamonlar osha insoniyat tabiyatida doimo uchrovchi illatlar bugungi zamonamizda ham mavjud va bu illatlarga birgalikda birlashib kurashishni Berdaq asarlari orqali xalqimizning yosh avlod vakillariga ham yetkazish muhim ahamiyatga ega.

Xulosamiz shuki, biz yozgan maqolamiz orqali adabiyotimizning qanchadan qancha shoir va yozuvchilar bir birini takrorlanmas ijod namunalari bilan zamonlar osha biz bilan hamnafas barxayotdir. Biz shu she'riyatimizni o'rgansak insoniylikning barcha fazilatlari sherlar orqali bizga yanada tushunarli bo'lib qolmasdan yuragimizga kuy qo'shiqlar bilan ham singib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Ma'naviyat yulduzlari" (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent-1999-yil) kitobidan olindi.
2. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. T. 1978.
3. Berdaq saylanma she'rlar va dostonlar. Qoraqalpoq tilidan Mirtemir tarjimasi G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent-1978
4. Berdaq. Tanlangan asarlar. T. 1978.
5. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/ulug-bek-hamd-erkin-badiiy-tafakkur-va-bugungi-o-zbek-sheriyati>.
6. <http://www.samdu.uz/>
7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdag>